

AMIR TEMUR DAVLATI

Ahmadqulov Jahongir Dilmurod o'g'li*Andijon Davlat pedagogika instituti**Ijtimoiy gumanitar va san'at fakulteti 102-guruh talabasi*

Annotatsiya: Amir Temur davlati XIV-XV asrlarda Movarounnahr markazida tashkil topgan ulkan imperiya. Samarqandni poytaxt qilib, Hindistondan Turkiyagacha bo'lgan hududlarni birlashtirgan. Davlatni markazlashgan boshqaruv, kuchli harbiy qudrat, rivojlangan madaniyat va ilm-fan, me'morchilik va hunarmandchilik taraqqiyoti bilan mashhur bo'lgan.

Abstract: The Timurid Empire was a vast state established in the 14th-15th centuries with its center in Transoxiana. Making Samarkand his capital, Tamerlane unified territories from India to Turkey. The empire was famous for its centralized administration, military might, developed culture and science, architecture, and craftsmanship.

Абстрактный: Империя Амира Темура - огромное государство, образованное в XIV-XV веках с центром в Мавераннахре. Сделав столицей Самарканд, он объединил территории от Индии до Турции. Государство славилось централизованным управлением, военной мощью, развитой культурой и наукой, архитектурой и ремеслами.

Kalit so'z: Temur, Samarqand, Movarounnahr, imperiya, qo'shin, savdo, madaniyat, me'morchilik, ilm-fan, islom, davlatchilik, harbiy, hunarmandchilik, soliqlar, elchilik, adolat, tuzuklar, raiyat, sayllar, ipak, kitobat, zargarlik, qurilish, markazlashuv, saltanat

Key word: Timur, Samarkand, Transoxiana, empire, army, trade, culture, architecture, science, Islam, statehood, military, crafts, taxes, diplomacy, justice, statutes, subjects, festivals, silk, manuscripts, jewelry, construction, centralization, dynasty

Ключевые слова: Тимур, Самарканд, Мавераннахр, империя, армия, торговля, культура, архитектура, наука, ислам, государственность, военное, ремесла, налоги, дипломатия, правосудие, уложения, подданные, празднества, шелк, рукописи, ювелирное, строительство, централизация, династия

Kirish

Amir Temur davlati – O'rta asrlarning eng qudratli imperiyalaridan biri bo'lib, u XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr zaminida tashkil topgan. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan barpo etilgan bu saltanat Osiyo va Yevropa tarixida muhim o'rin tutadi.

Sohibqiron Amir Temur davlatining shakllanishi murakkab tarixiy sharoitda kechdi. Mo'g'ullar hukmronligining zaiflashuvi, siyosiy tarqoqlik va o'zaro nizolar avj olgan bir paytda, u markazlashgan kuchli davlat barpo etishga muvaffaq bo'ldi. Samarqandni poytaxt qilib, Hindistondan Turkiyagacha, Sibir chegaralaridan Fors qo'ltig'igacha bo'lgan ulkan

hududlarni o'z tasarrufiga birlashtirdi. Amir Temur davlati o'ziga xos davlat boshqaruv tizimi, rivojlangan iqtisodiyoti, yuksak madaniyati va ilm-fani bilan ajralib turardi. "Kuch - adolatda" shiori ostida faoliyat yuritgan Sohibqiron davlatni boshqarishda qat'iy tartib-intizom va adolat tamoyillariga asoslangan. "Temur tuzuklari" davlat boshqaruvining asosiy qonun-qoidalarini o'zida mujassam etgan muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi Amir Temur davlatining tashkil topishi, rivojlanishi, davlat tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati va tashqi siyosatini har tomonlama yoritib berishdan iborat. Shuningdek, bu buyuk saltanatning jahon tarixidagi o'rnini va ahamiyatini tahlil qilish ham muhim vazifalardan biridir. Amir Temur davlati tarixi bugungi kunda ham olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Yangi tarixiy manbalarning topilishi, mavjud materiallarning qayta tahlil qilinishi bu davr haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitmoqda.

Sohibqiron Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1336-1405) asos solgan yirik va qudratli saltanat. Dastlab Movarounnahr va Xorazmda vujudga kelgan davlat uning 1380-1402 yillardagi harbiy yurishlari natijasida Eron, Iroq, Oltin O'rda, Turkiya, Ozarbayjon va Hindistonning shimoliy qismigacha yoyildi. U barcha turkiy qavmlarni yagona saltanatga birlashtirishni orzu qilgan edi. Temurbek shabon oyining yigirma beshida, hijriy yetti yuz o'ttiz oltinchi yilda (8.04.1336), o'n ikki hayvonli Turk yilligiga ko'ra Sichqon yilida Kesh shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tulilgan. Ayricha amerikalik tarixchi Manz xonim Temurbekning tug'ilgan yilini o'n to'rtinchi yuzyillikning yigirmanchi yillariga to'g'ri kelishini kabi o'z ikkilanishli qarashlarini oldinga surib keladi va bu shubhalanishiga sabab qilib Temurbekning 1336-yilda tug'ilganligi to'g'risidagi yozuvlar uning davridan keyin yozilganini va uning davriga tegishli bir nechta manbalardagi voqealarda Temurbekning yoshi uning 1320-yillar oxirida tug'ilganini ko'rsatishini aytadi (qarang, *Tamerlane and the Symbolism of Sovereignty*, B. F. Manz). Biroq birorta tarix kitoblarida Temurbekning tug'ilgan yili 1336-yil emas, balki boshqa yil ekanligi to'g'risida bilgi umuman uchramaydi.

Amir Temur Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida (hozir Yakkabog' tumani hududida) tavallud topgan. Uning onasi buxorolik Takina xotun, otasi esa barlos urug'ining va Chag'atoy ulusining e'tiborli bekларidan biri bo'lgan Amir Tarag'ay bahodir edi. Uning ota-bobolari Kesh viloyatida hokimlik qilib kelishgan.

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakatlari XIV asrning 60-yillaridan boshlandi. Bu paytda mamlakatda parokandalik boshlangan, u o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan edi. Chag'atoy ulusining sharqiy qismi - Ettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu erda o'z hokimiyatlarini o'rnatishga harakat qildilar.



Ammo Amir Temurning sarkardalik qobiliyati va qiyin vaziyatlarda to'g'ri yo'lni topa bilishi o'z samarasini berdi. Hokimiyatparast chingiziy beklarga qarshi janglar yakunida - 1370 yilning 11 aprelida u Movarounnahr amiri bo'ldi. Garchi an'anaga ko'ra chingiziylardan Suyurg'atmishxon mamlakat hukmdori deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amalda butun hokimiyat Amir Temur qo'lida edi. U katta g'ayrat bilan mamlakat iqtisodiy va harbiy qudratini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi. Bu esa Temuriylar saltanatini dunyodagi eng kuchli davlatlardan biriga aylantirdi.


Amir Temur hukmronlik qilgan yillari uning davlatiga qarashli o'lkalar to'rt qismga bo'lingan: Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) — Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (Markazi Tabriz) — Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) — Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) — Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berilgan edi.

Amir Temur Xitoy ustiga harbiy yurish paytida 1405 yil 18 fevral kuni O'tror shahrida vafot etdi. Uning vafotidan keyin vorislar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar boshlandi. 1405-1408 yillarda Balx, Xuroson, Seyiston, Kermon va Ozarbayjonda temuriy shahzoda va amirlarning bir qator isyonlari ro'y berdi. 1407 yil 22 fevralda Amir Temur tomonidan tayinlangan valiahd Pirmuhammad ana shunday g'alayonlardan birining qurboni bo'ldi. 1408 yil 22 aprel kuni qoraqo'yunli turkmanlari etakchisi Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'ldi. Natijada Ozarbayjon va Iroq hududi temuriylar qo'lidan ketdi.

XV asrning 20-yillarida bu ulkan mamlakat 2 davlatga bo'lingan edi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan bo'lib, uni Shohruh boshqargan (markazi Hirot). Ikkinchisi esa, Amudaryodan shimolda - Movarounnahr va Turkistonda vujudga kelib (poytaxti Samarqand), uni Ulug'bek idora etgan.

Ulug'bek otasi Shohruhning ko'magi bilan avval (1413) Xorazmni, so'ngra (1415) Farg'ona va Qashg'arni o'z tasarrufiga olib, davlatining g'arbiy va sharqiy chegaralari xavfsizligini ta'minlagan bo'lsa-da, ammo uning shimoli va shimoli-sharqiy tomonlari xavotirli edi. Shu boisdan XV asrning 30-40 yillari u otasi Shohruh bilan birga Dashti Qipchoqda Abulxayrxonga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ladi. Chunki ko'chmanchi chorvadorlar Movarounnahr viloyatlariga muttasil bostirib kirar va o'troq aholini g'orat qilar edi. Ulug'bek Movarounnahrni idora etish, tashqi va ichki siyosatga aloqador har qanday masalani hal etishda otasi bilan maslahatlashib va kelishib, uning rozi -rizoligi bilan hal etardi.

Shohruh 1447 yil 12 mart kuni nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida olamdan o'tadi. Shohruh vafotidan so'ng Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasidagi nizolar yana avj oladi. Bu kurash oqibatida zamonasining



mashhur olimi va hukmdori Mirzo Ulug‘bek 1449 yil 27 oktyabrda 55 yoshida Samarqand yaqinida fojiali suratda halok bo‘ladi. Ulug‘bek Movarounnahrni 40 yil (1409-49) idora etgan edi.

Ulug‘bek fojiasidan so‘ng taxtga chiqqan Abdullatif o‘ldirilgach, Samarqandda Ulug‘bekning kuyovi Abdulloh Mirzo, Buxoroda esa Mironshohning nabirasi Sulton Abu Saidlar podshoh qilib ko‘tariladi. Abdulloh Mirzo mamlakat barqarorligini tiklash uchun barcha choralarni ko‘radi, ammo Temuriylar taxtida uzoq vaqt o‘tira olmaydi. Avval u amakivachchasi Abu Said bilan kurashadi. O‘zaro janglarning birida Abdulloh Mirzo halok bo‘ladi. Abu Said Abulxayron yordamida Samarqandni egallab, Movarounnahrda hokim bo‘lib qoladi.

Temuriylar mulkining Xuroson qismi bu davrda Shohruhning nabirasi Abulqosim Bobur tasarrufida edi. 1457 yilda Abulqosim Bobur vafot etgach, Abu Said Hirot shahrini egallab, saltanatning har 2 qismini birlashtiradi. Bu davrda Sulton Husayn Boyqaro (Umarshayx mirzoning chevarasi) Xorazmni egallab oladi.

1469 yil bahorida Abu Said Ozarbayjonda Uzun Hasan bilan jangda halok bo‘lgach, Abu Saidning vorislari Sulton Husayn bilan to‘qnashmay Movarounnahrda qaytadilar. 1469 yilning 24 martida Sulton Husayn Xuroson hokimi sifatida Hirot taxtini egallaydi. Natijada Temuriylar davlati yana 2 mustaqil qismga bo‘linib ketadi.

Movarounnahrda Abu Saidning o‘g‘illari Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo va Umarshayx Mirzo hokimlik qiladilar.

Sulton Husayn Boyqaro idora qilgan davlat esa Sharqiy va Shimoliy Eron viloyatlari hamda Xorazmni birlashtirgan bo‘lib, temuriylarning qariyb 40 yil hukm surgan so‘nggi yirik saltanati edi. Xurosonda beto‘xtov davom etgan o‘zaro urushlarga, shahzoda va amirlarning boshboshdoqligiga qaramay, mamlakat aholisining turmush tarzi va madaniy hayoti Movarounnahrda nisbatan yuksakroq edi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi shoirlar, musavvir Behzod ijodi shu davrda kamol topdi.

Amir Temur va temuriylar saltanati O‘rta Osiyo davlatchiligi tarixining eng porloq davridir. Bu davrda yaratilgan moddiy va ma‘naviy yodgorliklar bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sharafiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarlari, “Temur tuzuklari”, Sohibqironning o‘z qo‘li bilan bitilgan “Temur qissasi” zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

Sohibqironning nabirasi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394- 1449) jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan siymolardan biridir. Uning hukmronligi davrida Samarqandda 2 ta ko‘rkam madrasa qurildi. Ularda diniy ilmlar qatori dunyoviy fanlardan ham saboq berilgan. Boshqa mashhur olimlar qatori uning o‘zi ham haftada bir marotaba bu madrasalarda yoshlarga dars berar edi. Keyinchalik Buxoro va G‘ijduvonda ham madrasalar qurildi, Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishi poyoniga etkazildi. Boshqa shaharlarda ham karvonsaroylar, tim, chorsu, hammom va boshqa inshootlar barpo etildi.

Ulug‘bek ko‘p qirrali iste‘dod sohibi edi. U ayniqsa adabiyot, tarix, matematika, astronomiya sohalariga qiziqqan. Uning eng buyuk ishlaridan biri - Samarqand shahrida

o'ziga xos Akademiya tashkil etganidir. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olim Ulug'bek rahbarligida fanning turli sohalari bo'yicha izlanishlar olib borgan. Qozizoda Rumiy (Salohiddin Muso ibn Muhammad), G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi (Mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Samarqandiy), Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiy, Mavlono Xavofiy kabi olimlarning aniq fanlar sohasidagi tadqiqotlari va ilmiy xulosalari salmoqli bo'lgan. Ular Xorazm Ma'mun akademiyasi an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirganlar.

Temuriylar davlati O'rta Osiyo tarixi va madaniyatida o'chmas iz qoldirgan. Bu davrda ichki va tashqi savdo, Sharq va G'arb mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar keng yo'lga qo'yilgan. Ko'plab masjid, madrasa va maqbaralar bunyod etilgan, kanallar qazilib, sug'orma dehqonchilik rivoj topgan. Sohibqiron Amir Temurning avlodlari bir necha yuz yil davomida sarkarda, davlat va jamoat arbobi, shoir va olim sifatida mamlakat ravnaqiga katta ulush qo'shdilar.

Ammo mamlakatning siyosiy hayotida kuchayib borayotgan keskinlik, Dashti Qipchoq o'zbeklarining Movarounnahr to'xtovsiz hamlalari temuriylar sulolasining inqirozini tezlashtirdi.

Shayboniyxon boshliq ko'chmanchi o'zbeklar 1500 yili Movarounnahrni, 1507 yili esa Xurosonni egalladilar.

Xulosa

Amir Temur davlati O'rta asrlar tarixining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. Bu saltanat nafaqat harbiy qudrati, balki madaniyat, ilm-fan, me'morchilik va san'at sohasidagi ulkan yutuqlari bilan ham jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan. Sohibqiron Amir Temur yaratgan davlat boshqaruv tizimi o'z davrining eng mukammal tizimlaridan biri edi. Markazlashgan boshqaruv, viloyatlarning ma'muriy taqsimoti, soliq tizimi, harbiy qo'shinning tashkil etilishi - bularning barchasi puxta o'ylangan va samarali faoliyat ko'rsatgan. "Temur tuzuklari"da aks etgan davlat boshqaruv tamoyillari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Amir Temur davlatining iqtisodiy siyosati savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan edi. Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'nalishlarini nazorat qilish, xalqaro savdoni rag'batlantirish, shaharlarni obod qilish va hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash natijasida iqtisodiyot gullab-yashnadi. Madaniyat va ilm-fan sohasida Temuriylar davri oltin asr bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va boshqa shaharlar yirik madaniy markazlarga aylandi. Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi kabi me'moriy yodgorliklar bugungi kunda ham jahon me'morchilik san'atining noyob namunalari hisoblanadi.

Ilm-fan sohasida astronomiya, matematika, tarix, adabiyot va boshqa sohalar rivoj topdi. Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi buyuk olimlar, Alisher Navoiy, Abdurrahmon Jomiy kabi ulug' shoirlar aynan Temuriylar davrida yashab ijod qildilar. Amir Temurning tashqi siyosati davlatning xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan edi. U Yevropaning yirik davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi, savdo va madaniy almashuvni rivojlantirdi. Uning harbiy yurishlari natijasida turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasida aloqalar kuchaydi.

Amir Temur davlati merosi bugungi kunda ham O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Sohibqiron yaratgan davlatchilik an'analari, madaniy va ma'naviy meros zamonaviy davlat qurilishi va jamiyat rivojida muhim o'rin tutadi. Zamonaviy tarixshunoslikda Amir Temur davri yangicha nuqtai nazardan o'rganilmoqda. Yangi tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar bu davrni yanada chuqurroq o'rganish imkonini bermoqda. Bu esa Temuriylar davri tarixi haqidagi bilimlarimizni boyitib, uning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o'rnini yanada to'laroq anglashga yordam bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davlati o'zining davlat boshqaruvi, madaniyati, ilm-fani va tashqi siyosati bilan O'rta asrlar tarixida muhim o'rin tutadi. Bu davr merosi nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, undan bugungi kunda ham saboq olish va o'rganish mumkin. Sohibqiron yaratgan buyuk saltanat tarixi kelgusi avlodlar uchun ham ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ARAB MAMLAKATLARI TARIXI. Abdullayev Nodir Abdulhayevich, Qodirov Zikrilloxon Musaxonovich, Ikromov Shavkat Iskandarovich, Bekmuradov Sanjar Tursunmamatovich, Karimov Nodir Rahmonqulovich. T. 2018.Y
- 2.V. V. Struve i D. G. Redera, M., 1963; Struve V. V.;
3. Qadimgi Sharq tarixi, T., 1956; Turayev B. A.;
- 4.Yegipetskaya literatura, t. I, M., 1920;
- 5.Matye M. E., Iskusstvo Drevnego Yegipta, M., 1958;
- 6.Vseobshaya istoriya arxitekturi, t. I, M., 1970 Inaya kultura Yegipta, v kn.;
- 7.Muzikalnaya kultura drevnego mira, [Sb. statey], L., 1937; L a u yer J. F.,
- 8.Zagadki yegipetskix piramid, per. s frans., M., 1966; Ney
- 9.Briant, P. (2002). From Cyrus to Alexander: A History of the Persian Empire.
- 10.Winona Lake: Eisenbrauns.
- 11.Pugachenkova G. A., Xalchayan, Toshkent, 1966;
- 12.Gafurov B. G., Ko'shanskaya epoxa i mirovaya sivilizatsiya, Moskva, 1968;
- 13.Staviskiy B. Ya., Ko'shanskaya Baktriya. Problemi kulturi, Moskva, 1977;
- 14.Pugachenkova G. A., Rtveladze E. V., Dalverzintepa – ku-shanskiy gorod va yuge O'zbekistova, Toshkent, 1978;
- 15.Litvinskiy B. A., Sedov A. V., Kulti i rituali ko'shanskoy Baktrii, M, 1984;
- 16.Pugachenkova G. A., Rtveladze E. V., Severvaya Baktriya – Toharistan, T., 1990;
- 17.Kultura i iskusstvo drevnego O'zbekistova [Katalog vistavki], kn. 1 i 2, M., 1991;
- 18.G'iyosov T. G'., Kadimgi Hindiston tarixi, T., 2000.